

Qirg'iziston elchisi bilan uchrashuv



O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining [rasmiiy sayti](#) xabariga ko'ra, bugun – 13-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov Qirg'iziston Respublikasining Favqulodda va muxtor elchisi Daniyar Sidiqovni qabul qildi.

Uchrashuv chog'ida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 5-6 sentabr kunlari Qirg'izistonga davlat tashrifi va oliy darajada bo'lib o'tgan muzokaralar doirasida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishning aniq masalalari muhokama qilindi.